



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 5-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD, dots. P.Lutfullayev, PhD, dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi** asosida chop etiladi. Jurnal **Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan.** UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLAR REZERVIDAGI XIZMATNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nazarmatov Abduraup Sobirovich

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti

Sharqiy Harbiy okrug fakulteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridan haqiqiy harbiy xizmatdan bo'shatilgan va rezervga kiritilgan kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar oddiy askarlar, serjantlar, ofitserlar, muddatli harbiy xizmatni yoki safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tagan va oliy ta'lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmalarida ofitserlarni tayyorlash dasturi bo'yicha to'liq o'quv kursini tamomlaganlar hamda Qurolli Kuchlar rezervidagi fuqarolar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi, qurolli kuchlar rezervi, qurolli kuchlar, rezervchilarni tayyorlash.

ОСОБЕННОСТИ ПРОХОЖДЕНИЯ СЛУЖБЫ В РЕЗЕРВЕ ВООРУЖЕННЫХ СИЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация: В статье регулируются отношения, касающиеся военнослужащих по контракту (рядовых, сержантов и офицеров), уволенных с действительной военной службы в Вооруженных Силах Республики Узбекистан и зачисленных в резерв; лиц, прошедших срочную военную службу или службу в мобилизационном призывном резерве; лиц, прошедших полный курс подготовки офицеров в военных учебных подразделениях при высших образовательных учреждениях; а также граждан, состоящих в резерве Вооруженных Сил.

Ключевые слова: Республика Узбекистан, резерв Вооруженных Сил, Вооруженные Силы, подготовка резервистов.

SPECIFIC FEATURES OF SERVICE IN THE RESERVE OF THE ARMED FORCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract: This article regulates relations concerning contract military personnel (privates, sergeants, and officers) discharged from active military service in the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan and placed in the reserve; individuals who have completed conscript military service or service in the mobilization call-up reserve; those who have completed the full officer training program at military training units of higher education institutions; and citizens in the Armed Forces reserve.

Keywords: Republic of Uzbekistan, Armed Forces reserve, Armed Forces, reservist training.

KIRISH

Qurolli Kuchlar rezervi O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to'g'risida"gi Qonunlariga muvofiq shakllantiriladi.

Rezervchilarni harbiy ro'yxatga olish O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro'yxatga olish to'g'risidagi Nizomga muvofiq mudofaa ishlari organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bunda, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotgan, shuningdek boshqa davlat fuqaroligiga ega bo'lgan harbiy xizmatga majburlar harbiy hisobdan chiqariladi.

Qurolli Kuchlar rezervi harbiy xizmatga yaroqli bo'lgan quyidagi fuqarolar orasidan shakllantiriladi:

- a) haqiqiy harbiy xizmatdan bo'shatilgan va rezervga kiritilgan kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar;
- b) haqiqiy harbiy xizmatdan bo'shatilgan va rezervga kiritilgan muddatli harbiy xizmatchilar;
- v) safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tagan harbiy xizmatga majburlar;
- g) muddatli harbiy xizmatni yoki safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tagan va oliy ta'lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmalarida ofitserlarni tayyorlash dasturi bo'yicha to'liq o'quv kursini tamomlaganlar.

Rezervda bo'lish yoshining chegarasiga yetgan yoki harbiy-tibbiy komissiyalar tomonidan salomatligiga ko'ra urush davrida harbiy xizmatga yaroqsiz deb topilgan harbiy xizmatga majburlar mudofaa ishlari organlari tomonidan harbiy hisobdan chiqariladi va iste'foga chiqariladi.

Qurolli Kuchlar rezervidagi harbiy xizmatga majburlar birinchi va ikkinchi toifaga bo'linadi.

Birinchi toifali rezerv chaqiruv yoki kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tagan hamda xizmatni o'tash davrida harbiy hisobdagi ixtisoslikni egallagan birinchi toifadagi harbiy xizmatga majburlar orasidan to'ldiriladi.

Ikkinchi toifali rezerv chaqiruv yoki kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tagan ikkinchi darajadagi harbiy xizmatga majburlar, shuningdek safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmatni o'tagan harbiy xizmatga majburlar orasidan butlanadi.

Qurolli Kuchlarning qo'shilma, harbiy qism va bo'linmalarini urush davri shtatlari darajasiga qadar to'ldirish, shuningdek urush davri tuzilmalarini saf torttirish uchun mo'ljallangan rezervchilarni saralab olish harbiy okruglar qo'shinlari qo'mondonlarining buyruqlari bilan tuziladigan saralash komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi. Saralash komissiyalari tarkibiga harbiy okruglar shtablari, butlanayotgan bo'lgan qo'shilma, harbiy qism va bo'linmalar qo'mondonligi, mudofaa ishlari organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakillari, shuningdek tegishli turdagi qo'shin va xizmatlar mutaxassislari kiradi.

Qurolli Kuchlarning qo'shilma, harbiy qism va bo'linmalariga ro'yxatga olish uchun rezervchilarni saralash, qoidaga ko'ra, harbiy xizmatga majburlarning harbiy-hisob ixtisosligi, oilaviy ahvoli, shuningdek harbiy tayyorgarlik darajasi, intellektual va jismoniy imkoniyatlarini hisobga olgan holda hududiy prinsip asosida yakka tartibda amalga oshiriladi.

TAHLILLAR VA MUHOKAMA

Rezervchilarni tayyorlashning asosiy mazmuni ular ro'yxatga olingan bo'linmalar tarkibida jangovar tayyorgarlik bo'yicha individual bilim, malaka va mahoratlarni oshirish, harakatlar taktikasini puxta o'rganishdan iborat.

Rezervchilarni tayyorlash, qoidaga ko'ra, hududiy prinsip bo'yicha harbiy qismlar, o'quv markazlari qoshida harbiy yig'inlar tashkil etish va o'tkazish yo'li bilan, shuningdek safarbarlik o'quvlari va mashqlarini o'tkazish davomida amalga oshiriladi.

Rezervdagi harbiy xizmatga majburlarni harbiy yig'inlarga chaqirish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan har yili tasdiqlanadigan rezervdagi harbiy xizmatga majburlarni harbiy yig'inlarga chaqirishning hisob-kitobi asosida vazirliklar tomonidan ishlab chiqiladigan harbiy yig'inlarni o'tkazish rejasidan ko'chirmaga muvofiq mudofaa ishlari organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Harbiy yig'inlarga chaqirish uchun nomzod etib tanlab olingan rezervdagi harbiy xizmatga majburlar hisob ma'lumotlarini tekshirish va tibbiy ko'rikdan o'tkazish maqsadida ular oldindan xabardor qilinib, harbiy yig'inlarda qatnashish uchun yetib borish vaqti va ularning davomiyligi ko'rsatilgan belgilangan namunadagi chaqiruv qog'ozi taqdim etiladi. Tashkilot rahbarining nomiga yuboriladigan bildiruv xatida rezervdagi harbiy xizmatga majburlarning harbiy yig'inlarda bo'lish vaqti yig'inlarda qatnashish, harbiy qismga yetib borish va yig'inlardan qaytish vaqtini hisobga olgan holda ko'rsatiladi.

Rezervdagi harbiy xizmatga majburlarni harbiy yig'inlarga yuborish mudofaa ishlari organlari tomonidan harbiy okruglar shtablaridan olingan ko'rsatmalar va harbiy qism komandirlaridan olingan talabnomalarga muvofiq tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

Rezervdagi harbiy xizmatga majburlarni harbiy yig'inlarga olib borish va qaytarib olib kelish harbiy yig'inlar o'tkazilayotgan tegishli vazirlik va muassasalarning mablag'lari hisobiga temir yo'l yoki avtomobil transporti orqali amalga oshiriladi.

Mudofaa ishlari organlari qo'shilma, harbiy qism va muassasalarning komandirlariga o'quv harbiy yig'inlarini o'tashga chaqirilgan rezervdagi harbiy xizmatga majburlarga doir quyidagi hujjatlarni yuboradi:

- a) rezervdagi ofitserlar tarkibi uchun — nomma-nom tuzilgan ro'yxat va shaxsiy yig'ma jildlar;
- b) rezervdagi serjant va oddiy askarlar tarkibi uchun — nomma-nom tuzilgan ro'yxat;

v) uchuvchilar tarkibi uchun — nomma-nom tuzilgan ro'yxat, shaxsiy yig'ma jildlar, parvoz va tibbiy daftarchalari.

Harbiy xizmatga majburlarni harbiy qism qabul qilib olganligi to'g'risida belgi qo'yilgan ro'yxatlarning ikkinchi nusxalarini tuman mudofaa ishlari bo'yicha bo'limi boshliqlari mudofaa ishlari boshqarmalariga taqdim etadi.

Harbiy yig'inlarning boshlanish vaqti deb rezervchining mudofaa ishlari organidan harbiy yig'inlar o'tkaziladigan joyga jo'nagan kun, ularning tugash vaqti deb esa rezervchining harbiy qism komandiri tomonidan berilgan yozma buyruqda ko'rsatilgan mudofaa ishlari organiga yetib kelgan kun hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatda belgilanadigan davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, tashkilotlar uchun bronlashtirib qo'yilgan rezervdagi harbiy xizmatga majburlar harbiy yig'inlarda qatnashishdan ozod etiladi.

Rezervda turuvchi fuqarolarni harbiy kiyim-kechak kiyib yurish huquqidan mahrum etish O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Rezervda turuvchi fuqarolarni harbiy kiyim-kechak kiyib yurish huquqidan mahrum etish, harbiy unvondan bir pog'ona pasaytirish, harbiy unvoniga qayta tiklash to'g'risidagi taqdimnomalar vazirliklarning hududiy vakolatli organlari rahbarlari tomonidan kiritiladi va tegishli vazirlikning rahbariga qaror qabul qilish uchun yuboriladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Qurolli Kuchlar rezervini shakllantirish va rezervdagi harbiy xizmatga majburlarni tayyorlash mamlakat mudofaa qobiliyatini ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Rezervchilarni harbiy ro'yxatga olish, saralash, harbiy yig'inlarga jalb etish va ularning jangovar tayyorgarligini oshirish belgilangan qonunchilik asosida amalga oshiriladi. Rezervchilarni tayyorlashda ularning harbiy-

hisob ixtisosligi, jismoniy va intellektual imkoniyatlari hamda jangovar tayyorgarlik darajasini inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, harbiy yig'inlarni tizimli va sifatli tashkil etish rezervning tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu tizimni yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi takliflarni tizimli ravishda amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Rezervchilarni harbiy yig'inlarga jalb etish va tayyorlash jarayonida zamonaviy o'qitish usullari hamda axborot texnologiyalaridan keng foydalanish.
2. Rezervchilarning harbiy-kasbiy, jismoniy va psixologik tayyorgarligini muntazam ravishda oshirishga qaratilgan mashg'ulotlarni takomillashtirish.
3. Rezervchilarni saralash jarayonida ularning harbiy-hisob ixtisosligi va individual qobiliyatlarini yanada chuqurroq inobatga olish.
4. Harbiy yig'inlarni o'tkazish samaradorligini oshirish maqsadida nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish.
5. Rezervchilarning tayyorgarlik darajasini baholashning aniq va samarali mezonlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi" Nizomni tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 12 sentabrdagi PQ-4447-sonli qarori. Toshkent-2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Harbiy nizomlari. Toshkent-2025.
4. "O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonuni. 2002-yil 12-dekabr, 436-II-son.